

**BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DARS JARAYONIDA  
INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI**

**Kutlimuratova Inobat Sabirovna**

*Xorazm viloyati Shovot tumani 17-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Karimova Gulg'uncha Kazakovna**

*Xorazm viloyati Shovot tumani 17-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Atajonova Dilafruz Komilovna**

*Xorazm viloyati Shovot tumani 17-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Xaitboyeva Marhabo**

*Xorazm viloyati Shovot tumani 17-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annontatsiya;** *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lif samarodorligini oshirishda dars jarayonida interfaol metodlarning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar;** *boshlang'ich, dars, interfaol, metod, o'qituvchi, ta'lif.*

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lif jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qituvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi, va o'quv sifati va samarodorligini oshiradi. Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq – oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning har bir bildirgan fikrlari, u to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, tanqid qilinmaydi.

O'quvchilar hamkorlik, hamijodkorlikda ishslashda mavzu mazmunini bilish va o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy xissalarini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalari, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiylikni ta'minlaydi, yangi bilimlarni olish, o'zlashtirishga havas ortadi. Dars jarayonida bir – birlarini qo'llab – quvvatlash, o'zaro samimiy, do'stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Dialog asosida kechgan jarayonlarda o'quvchi tanqidiy fikrlashga, murakkab masalalarni ham tahlil asosda echimini topishga, shunga yarasha axborotni izlash, ayrim alternativ fikrlarni o'zaro muzokaralarda erkin bayon qilishga o'rganadi va shunday ko'nikmalar shakllanib boradi. Interfaol darslarni tashkil etishda o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishslash, guruhlarda ishslash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o'yinlar, hujjat bilan ishslash, axborot manbalari bilan ishslash, ijodiy ishslashlardan foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lган metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir.. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Bolaning erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi.

Hozirgi darslarda interfaol metodlardan foydalanish talab etilayotgan ekan, o'quvchini boshlang'ich sinfdan o'z fikrini to'liq ifodalashga, o'z yo'li va maqsadini mustaqil belgilashga, zimmasidagi ma'suliyatni his etishga o'rgatiladi. Interfaol metodlardan foydalanish orqali dars saviyasi yaxshilanadi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalar faollahadi, dunyoqarashi va tafakkuri boyib boradi.

Interfaol metodlarni qo'llashda yangilikka intilish kerak. Bunda ko'rgazmali vositalarning sifatligi talab etiladi.

Noan'anaviy darslarning eng qiziqarli va jonlisi bu-pedagogik o'yinlarni tashkil etishdir. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng tushunarli va o'zlariga yaqin jarayondir. O'yin vaqtida bola o'zini erkin tutadi. Bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi.

Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etadiki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladir.

Bilish jarayonida o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati deganda, ularni har birining o'ziga xos aloqada individual hissa qo'shishi, o'zaro bilimlar, g'oyalar va faoliyat usullari bilan almashinishlari tushuniladi. SHu bilan birga, bularning hammasi o'zaro xayriyohlik va qo'llab – quvvatlash muhitida amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida yangi bilimlarni olishgagina imkoniyat bermasdan, balki bilish faoliyatining o'zini ham rivojlantiradi, uni yanada yuqoriroq koopertsiya va hamkorlik pog'onalariga olib chiqadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lган qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining

sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinni egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Interfaol metodlar va ularning tavsifi Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqliqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jumayev M.E. "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" - Toshkent.: O'qituvchi, 2004.
2. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.-T.: "Ilm-Ziyo", 2005.
3. Bikbayeva N.U. va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" - Toshkent.: O'qituvchi, 2007.
- 4 Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
5. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limgizi ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003-yil
6. Azizzo'jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Reklama - rejalar). – Toshkent, 2002-yil